



# UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 28.04.2025  
<https://universaljurnal.uz>



## International indexes

GOOGLE SCHOLAR  
CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

## FOYDALI HASHAROTLAR ENTOMOFAUNASINI O'RGANISH

**Muhtorova Irodaxon Baxromjon qizi**

Andijon davlat universiteti biologiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Uzbekistan**

[irodaxonmuxtorova07@gmail.com](mailto:irodaxonmuxtorova07@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi hasharotlarning tabiatdagi ahamiyati, ularning faunasidagi foydali hasharotlarning qishloq xo'jaligi ekinlariga keltiradigan foydali tomonlari o'rganildi. Keyingi yillarda entomofoglarni xona sharoitida sun'iy ozuqa jihatida ko'paytirib, keyin daladagi zararkunandaga qarshi qo'yib yuborish usuli keng qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi ekinlarini biologik himoya qilishda keng qo'llanilayotgan entomofoglardan: to'r qanotlilar (Neuroptera) turkumiga mansub oltinko'zlar Chrysopidae oilasi vakillaridan oddiy oltinko'z (*Chrysopa carnea* Stephens, 1836), trixogramma avlodiga mansub hashoratlar va gabrobrakonlar kiradi. Ularning qulay tomoni shundan iboratki, ularni yil davomida maxsus laboratoriya sharoitida ko'paytirish mumkin.

**Kalit so'zlar:** tixogramma, brakon paraziti, oltinko'z, xonqizi, gabrobrakon.

**Аннотация:** В данной диссертации изучается значение насекомых в природе и польза, которую полезные насекомые из их фауны приносят сельскохозяйственным культурам. В последние годы широкое распространение получил метод разведения энтомофагов в комнатных условиях на искусственных кормах с последующим выпуском их против вредителей в полевых условиях. В настоящее время к энтомофагам, широко используемым в биологической защите

сельскохозяйственных культур, относятся: обыкновенный щегол (*Chrysopa carnea* Stephens, 1836), насекомые рода Трихограмма и габбробраконы из отряда сетчатокрылых семейства Chrysopidae. Их преимущество в том, что их можно выращивать круглый год в специальных лабораторных условиях.

**Ключевые слова:** тиксограмма, браконьерский паразит, гоголь, ханкизи, габбробраконьерство.

**Abstract:** This thesis studies the importance of insects in nature, the beneficial effects of beneficial insects in their fauna on agricultural crops. In recent years, the method of breeding entomophages in room conditions on artificial feed and then releasing them against pests in the field has been widely used. Currently, entomophages widely used in the biological protection of agricultural crops include: common goldfish (*Chrysopa carnea* Stephens, 1836), insects belonging to the genus *Trichogramma*, and gabbrobracones from the family Chrysopidae of the order Neuroptera. Their advantage is that they can be bred in special laboratory conditions throughout the year.

**Keywords:** tixogramma, poaching parasite, goldeneye, khankizi, gabbropoaching.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Muhtorova, I. (2025). STUDY OF THE ENTOMOFAUNA OF BENEFICIAL INSECTS. *Universal International Scientific Journal*, 2(4), 185–189. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1545>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15310659>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Trixogramma (*Trichogramma*) — qishloq xo‘jaligiga zarar keltiruvchi xavfli zararkunandalar bilan oziqlanuvchi hasharot hisoblanadi. Tunlam kapalaging tuxumlarini yo‘qotishda asosiy biologik vosita sifatida ishlatiladi. Tanasining uzunligi 0,3-0,9 mm. Trixogrammaning qisqa qanotli va qanotsiz turlari mavjud. Mo‘ylovi 5-9 bo‘g‘imli, qanotlari keng hoshiyali, oldingi qanotlari qisqa shokilali. Orqa juft qanotlari ingichka. Urg‘ochisining mo‘ylovi qisqa, bir halqali,

xivchini ikki bo‘g‘imli. Erkaklari ko‘pincha qanotsiz yoki qanoti soddalashgan. Trixogramma polifag bo‘lib, 200 ga yaqin turdagi hasharot tuxumini zararlaydi. Trixogrammalardan hasharotlarga (tunlamlar, parvonalar, odimchilar va boshqalar) qarshi kurashda foydalaniladi. Maxsus biolaboratoriyalarda ko‘proq pintoii Voegele turi ko‘paytiriladi. Dalalardagi kemiruvchi tunlamlarga qarshi uch marta har gektariga 200 ming donadan

yetuk trixogramma tarqatish tavsiya etiladi [6; 12-16 b.].

Brakonidlar (Braconidae) - tanasining uzunligi 5-15 mm. Qornining dastlabki 3 bo'g'imi (segmenti) kalta, ba'zan birinchisi bir oz uzunroq. Oyoqlari, odatda ixcham, boldirida pixi bor, o'tirg'ich yoki poyasimon qorinli; 2-3 bo'g'imlari o'zaro harakatsiz birikkan. Qattiq qanotlilar, tangaqanotlilar, tengqanotlilar turkumi vakillarida parazitlik bilan hayot kechiradi. Brakanidlarning ko'pgina turlari qandalalar, qo'ngazlar, kapalaklar, arrakashlar, chumolilar va pashshalarning ichki parazitidir. Voyaga yetgan gul nektari yoki so'ruvchi hasharotlarning chiqindilari (shirasimon suyuklik) bilan oziqlanadi. Katta yoshdagi lichinkasi xo'jayin qurtida qishlaydi. Yilda 5-6 avlod beradi. Brakanidlarning ko'pchiligi serpusht (1000 tagacha tuxum qo'yadi). O'rta Osiyoning sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasida Brakanidlarning *Apanteles congestus* (Nees, 1834), *Aleiodes dimidiatus* (Spinola, 1808), *Microplitis spectabilis* (Haliday, 1834), *Macrocentrus collaris* (Spinola, 1808), *Habrobracon hebetor* (Say, 1836) va boshqa turlari tarqalgan. Brakonidlarda ko'pgina vakillaridan zararkunanda hasharotlarga qarshi biologik kurashda keng foydalaniladi [4; 122-128 b.].

Oltinko'zlar (Chrysopidae) - O'rta Osiyo faunasida 24 turi tarqalgan. O'zbekistonda *Chrysoperla carnea* (Stephens, 1836), *Ch. albolineata* L. va *Ch.*

*vittata* W. ko'p uchraydi. Tanasi och yashil, kuzlari tillarang, sadafeimon yoki kamalaksimon tovlanuvchi qanotlari yoyilganda 19-50 mm. Mo'ylovi cho'tkasimon, peshonasi tekis. Ingichka dastali och yashil, tuxumini o'simlikka yopishtirib qo'yadi. Lichinkasi tigiz, old va orqa tomoni ingichka, ko'krak oyoqlari yaxshi rivojlangan. G'umbagi ochiq tipda, rangi yashil. Oltinko'zning lichinkalari yirtqich hayot kechirib, ular juda xo'ra va nihoyatda harakatchan. Ular polifag (ozuqa turi ko'p). Lichinkasi 3000 tagacha bit, o'rgimchakkana va zararkunanda tunlam tuxumlarini yo'q qilishi mumkin. Yetuk hasharot fazasida, kamdan-kam g'umbak xolida qishlaydi. Qishlovdan mart oxiri-aprel boshlarida, sutkalik o'rtacha harorat 10-11°C bo'lganda chiqadi. Tuxumini o'simlikning bargi va boshqa qismlariga bittadan yoki to'p qilib qo'yadi. Urg'ochisi bir kunda 65 ta hayoti davomida esa 500-750 tagacha tuxum qo'yadi. Dehqonlik mintaqalarida yashaydigan Oltinko'zning asosiy turlari 4-5 avlod beradi. Paxta dalalari agrobiotsenozida g'o'za va boshqa qishloq xo'jaligi zararkunandalarini yo'q qiluvchi etnomofaglar sifatida katta ahamiyatga ega. O'simliklarni zararkunanda hasharotlardan ximoya qilishda qo'llash uchun laboratoriya sharoitida, tabiiy va sun'iy ozuqa muhitida ko'paytirish usuli ishlab chiqilgan [3; 225 - 230 b.].

Xonqizi (*Cocinella septempunctata*) - tanasi yumaloqlashgan va yelka qismi qavariq. Kattaligi 8 mmmgacha. Tanasi to'q

qizil rangli bo'lib, 7 tadan qora nuqtalari bor. Qanotining osti va qorin qismi qora. Bosh qismi kichik bo'lib, ko'krak-qorin qismiga kuchli qo'shilib ketgan. Tanasida 4juft oyoqlari bo'lib, ohirgi 4chi jufti ko'rinmaydi, chunki juda kalta. Oyoqlarining bog'inlarida maxsus teshik poralari bo'lib, havf tug'lganda to'q sariq rangli ishqoriy gemolimfa suyukligi chiqaradi. Ular asosan, Yevropa, Osiyo, Shimoliy Afrikada keng tarqalgan. O'rta Osiyo xonqizilari 2700 m balandlikkacha bo'lgan tog' zonalarida toshlar ostida to'planib qishlaydi. Bahorda uchib chiqib ekinzorlarga, bog'larga keladi. Oziq yetarli bo'lganda urg'ochilari serpusht bo'ladi va ular 200-400 tagacha tuxum qo'yadi. O'simlik tanasiga qo'yilgan tuxumlaridan juda serharakat lichinka chiqadi. To'q rangli qizil dog'lari bo'lgan bu lichinkalar rivojlanish stadiyasi davomida 1000 ta shiralarni yeydi. Bir sutkada kunduzi 60-100 shira bitlari va 300 tagacha lichinkalarini yeb tugatadi. Voyaga yetgan formalar shiralar, oqqanotlar, o'rgimchakkana bilan oziqlanadi [7; 69-75 b.].

Gabrobrakon (*Habrobrocon hebetor* Say) - yetuk hasharot och sarg'ich rangli 2-3 mm, yozgi bo'g'in zotlari rangliroq, bahorgi va kuzgilari qoramtirroq. Mo'ylo'vlari yo'g'onroq, bosh va ko'krak uzunligidan kaltaroq. Ular tuxumlarini o'lja qurtlari tanasiga qo'yadi. Gabrobrakon tashqi parazit. U ko'sak qurtiga 2-16 tagacha tuxum qo'yadi. Bir urg'ochi 10-100 tagacha tuxum qo'yishi

mumkin. Lichinkasi oyoqsiz, jag'lari o'roqsimon [1; 115 - 130 b.].

Demak, entomofag hasharotlar doimo zararkunanda hasharotlarning miqdor zichligiga ta'sir ko'rsatadi. Ularning soni qanchalik ko'p bo'lsa, zararkunandalarning soni ham shunchalik kamayib boradi. Har bir tuman va qishloqlarda biolaboratoriyalarda ish faoliyatini rivojlantirishimiz kerak. Ayrim chekka qishloqlarda biolaboratoriyalar mavjud emas yoki ishlamaydi. Hozirda ayrim biolaboratoriyalar xususiy lashtirilgan. Tabiat barchamizning umumiy uyimizdir. Foydali xashoratlarning tabiat va inson uchun ahamiyati beqiyos ekan, ularni muhofaza qilish har birimizning muqaddas burchimizdir [2; 190-195 b.].

#### XULOSA

Foydali hasharotlar entomofaunasini o'rganish natijasida aniqlanishicha, bu organizmlar tabiiy ekotizimlar va qishloq xo'jaligi uchun muhim biologik resurs hisoblanadi. Tabiatda va agrobiotsenozlarda ular zararkunanda hasharotlar sonini nazorat qilish orqali ekinlar hosildorligini saqlab qolish va oshirishda katta rol o'ynaydi. *Trixogramma*, *brakonidlar*, *oltinko'zlar*, *xonqizilar* va *gabrobrakonlar* kabi entomofaglar tabiiy yirtqich yoki parazit xususiyatga ega bo'lib, ular bir qancha zararli hasharotlarning tuxumlari yoki lichinkalarini yemirib, ularning tarqalishini sezilarli darajada cheklaydi. Ushbu foydali

hasharotlar biologik kurash vositasi sifatida nafaqat ekologik toza, balki iqtisodiy jihatdan ham tejamkor usul hisoblanadi. Ularni maxsus laboratoriyalarda sun'iy sharoitda ko'paytirish, keyinchalik dalalarga chiqarib yuborish orqali ko'plab zararli hasharotlarga qarshi samarali kurash olib borish mumkin. Bu jarayon ayniqsa, pestitsidlardan voz kechish yoki ularni minimal darajada qo'llashga intilayotgan zamonaviy ekologik qishloq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu turlarni keng miqyosda saqlab qolish, ko'paytirish va tabiatda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash

orqali barqaror qishloq xo'jaligi tizimiga erishish mumkin. Buning uchun har bir hududda samarali ishlaydigan biolaboratoriyalar tarmog'ini kengaytirish, mavjudlarini modernizatsiya qilish muhim vazifalardan biridir. Foydali hasharotlar nafaqat zararkunandalarni nazorat qiladi, balki biologik xilma-xillikni saqlashda, tabiiy muvozanatni barqarorlashtirishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Ularni muhofaza qilish va ulardan to'g'ri foydalanish bugungi va kelajak avlodlar uchun ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. R.A Olimjonov "Entomologiya"
3. H. Kimsanboyev, S. Ergashev, R. O'lmasboyeva, B. Sulaymov "Entomologiya"
4. Muhammadiev A.M. Umurtqasizlar zoologiyasi. T., "O'qituvchi", 1976.
5. Lukin E.I Zoologiya. M., "Agropromizdat", 1989. 384s
6. Бей-биенко Г.Я. Общая энтомология. – М.: «Высшая школа», 1980.
7. Дьяков Ю.Т. и др. Общая и сельскохозяйственная фитопатология. – М.: «Колос», 1984.
8. in-academy.uz
9. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
10. Matkarimov, J. S. (2024). PREZI SAYTIDA TAQDIMOT TAYYORLASHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARIGA OID. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 42-46.
11. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI QO'LLASH.
12. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DASTURLARINI QO'LLASH.
13. Maratovich, A. I. (2025). O'QUV JARAYONIDA GAMIFIKATSIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH VA TALABALARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH. Global Science Review, 2(1), 75-81.
14. Maratovich, A. I. (2025). BOSHLANG'ICH TA'LIM TALABALARINI TA'LIMYIY GEYMIKATSIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 72(1), 144-146.